

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SHONAZAROV ULFAT IBROGIM O‘G‘LI

**YER UCHASTKASINI DAVLAT VA JAMOAT EHTIYOJLARI UCHUN
OLIB QO‘YISHNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Shonazarov Ulfat Ibrogim o‘g‘li

Yer uchastkasini davlat va jamaot ehtiyojlari uchun olib qo‘yishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish.....3

Шоназаров Улфат Иброгим угли

Гражданско-правовое регулирование изъятия земельного участка для государственных и общественных нужд.....19

Shonazarov Ulfat Ibrogim ugli

Civil law regulation of land plot expropriation for state and public needs.....37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....41

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SHONAZAROV ULFAT IBROGIM O‘G‘LI

**YER UCHASTKASINI DAVLAT VA JAMOAT EHTIYOJLARI UCHUN
OLIB QO‘YISHNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Yu588 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Okyulov Omanbay
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich
yuridik fanlar doktori, professor

Xursanov Rustam Xolmuratovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament
tadqiqotlari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 1-noyabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1431-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14-oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 14-oktabrdagi 91-son reyestr bayonnomasi).



U. Rustambekov

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullaev

D.Y. Xabibullaev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori,
professor

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yerga nisbatan mulkchilik har bir mamlakatning tarixiy rivojlanishi, o'tmishi, shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga asoslanadi. Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish esa adolatli kompensatsiya va qonunchilikda qat'iy belgilangan tartibda amalga oshirilishi dolzarb hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, har bir mamlakatda mulk daxlsizligi tamoyilining qay darajada ta'minlanganligi bilan ham bog'liq. Mulk huquqini himoya qilishning xalqaro indeksi (International Property Right Index) 2024-yil oktabr oyidagi ma'lumotlariga ko'ra mulk huquqi eng yaxshi himoyalangan davlatlar reytingidagi yuqori o'rinlar Finlandiya (8,081 ball), Singapur (7,942 ball), Daniya (7,774 ball), Niderlandiya (7,773 ball), Luksemburg (7,751 ball)¹ kabi mamlakatlar² egallagan. Bu ko'rsatkich mulkka, xususan, yer uchastkasiga nisbatan huquqlarning davlat qonunlari bilan himoyalanganlik darajasining yuqori ekanligini ko'rsatadi va o'z navbatida mazkur reytingga kirmagan yoki unda pastki pog'onalarni egallagan mamlakatlarda mulk huquqini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishning zaruratini ham ko'rsatadi.

Jahonda yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish adolatli kompensatsiya, aniq shakllantirilgan va qonun darajasida belgilangan jamoat ehtiyojlari ro'yxati hamda olib qo'yish tartib taomillarining shaffof ekanligi asosida amalga oshiriladi. Shu sababli rivojlangan xorijiy mamlakatlar: AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yer uchastkasini olib qo'yish quyidagi nazariyalarga asoslanadi: 1) Jamoat manfaatlari nazariyasi (Public Interest Theory); 2) Iqtisodiy samaradorlik nazariyasi (Economic Efficiency Theory); 3) Adolat va huquqlarni himoya qilish nazariyasi (Fairness and Equity Theory); 4) Qarorlarni inklyuziv qabul qilish nazariyasi (Participatory Approach). Bunda yer uchastkasini olib qo'yilishida huquq egalari manfaatlarini ta'minlash, olib qo'yilayotgan mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash, huquq egalari va davlat hokimiyati organlari bilan yer uchastkasini olib qo'yish to'g'risida kelishuv tuzish hamda jamoat ehtiyojlarining aniq va shaffof ro'yxatini belgilash masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlarning predmeti sanaladi.

O'zbekistonda yer uchastkalarini olib qo'yish masalalari bo'yicha muayyan qonunchilik asosi yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, asosiy muammolar sifatida kompensatsiya miqdorini va mol-mulkning bozor qiymatini noto'g'ri belgilash, kompensatsiya to'lovlarini o'z vaqtida to'lamaslik, boy berilgan foydani hisoblashdagi xatoliklar hamda yer uchastkasiga nisbatan huquq egasining huquqlari doirasini tasdiqlash ko'rsatib o'tilishi mumkin. Shu bilan birga, yer uchastkalarini olib qo'yish institutining asosan yer uchastkasiga nisbatan mulkdor bo'lmagan shaxslarning huquqlariga nisbatan qo'llanishi, xususiy mulkdordan yer uchastkalari qayta sotib olish tartibida olib qo'yilishi mumkinligi masalasi ham aniq huquqiy yechimga ega emas. Jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini olib qo'yish murakkab yuridik tarkibli fakt ekanligi, mazkur jarayonni amalga oshirish uchun

¹ Mazkur ballar 10 ballik shkalada qo'yilgan.

² Рейтинг стран мира по Индексу защиты прав собственности. Property Rights Alliance: International Property Right Index 2024 // <https://gtmarket.ru/ratings/international-property-right-index>

ommaviy va xususiy elementlarning o‘zaro qorishmasi talab etilishiga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirish ham bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda fuqarolik kodeksi, 1998-yil 30-aprelda yer kodeksi, 1990-yil 31-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi, 2021-yil 15-noyabrda “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 29-iyunda “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta‘minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyunda PF–6243-son, 2022-yil 24-avgustda “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–198-son farmonlari va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun kompensatsiya evaziga olib qo‘yish masalalari O‘zbekiston qonunchiligi darajasida tadqiq qilinmagan. Biroq yer uchastkasiga oid huquqlar, ular bilan bog‘liq bitimlar va shartnomalar bir qator huquqshunos olimlarning tadqiqot obyekti bo‘lgan. Xususan, H.R. Rahmonqulov, I.B. Zokirov, O. Oqyulov, D.M. Karaxodjayeva, R.J. Ro‘ziyev, S.B. Boboqulov, X.T. Azizov, N.F. Imomov, M.X. Baratov va boshqa olimlarning asarlarida fuqarolik huquqiy nuqtayi nazardan yer uchastkalarining maqomi bilan bog‘liq ayrim masalalar o‘rganilgan. Yerga nisbatan ashyoviy huquqlar V.Y. Ergashev, mulk huquqining daxlsizligi D.A. Chiniyev, shartnomalar O.J. Xolmo‘minov, K.A. Ko‘chimov, yer uchastkalarining tadbirkorlik subyektlari mulk huquqining obyekti sifatidagi holati N.A. Ashurova, yer uchastkalarini xususiylashtirish J. Raxmatillayev va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan³.

MDH mamlakatlari olimlaridan I.S. Ilyuxin, R.G. Arakelyan, N.P. Kabitov, Y.S. Kleymenova, N.I. Taskin, Y.A. Grin, I.I. Karakash, M.V. Kuzmina, Y.L. Slepnev, N.K. Basmanova, Y.L. Sidorova, S.D. Afanaseva, V.S. Yeliseyev, O. Kaldarbekuli⁴ va boshqalar yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishning u yoki bu masalalarini tadqiq qilishgan.

³ Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

⁴ Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan: D.B. Kelly, G. Grotius, U. Mattei, I. Somin, U. Westman, J. Sluysmans, S. Verbist, E. Waringlar⁵ yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga olib qo'yishning ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy jihatlarini yoritishgan.

Biroq ushbu olimlarning aksariyati yer uchastkasilarini olib qo'yishning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi, bunda O'zbekiston qonunchiligida belgilangan kelishuv tuzish tartib-taomillari hamda kompensatsiya to'lash asoslari, miqdori va tartibotini tadqiq etmaganligi yana bir bor ushbu mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining "Yer uchastkasini davlat va jamaot ehtiyojlari uchun olib qo'yishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ustuvor yo'nalishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yer uchastkasini davlat va jamaot ehtiyojlari uchun olib qo'yishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yer uchastkasini olib qo'yishda davlat va jamaot ehtiyojlari tushunchasining ilmiy-amaliy jihatlarini ochib berish;

yer uchastkalarini jamaot ehtiyojlari uchun olib qo'yish prinsiplarining tahlilini amalga oshirish;

jamaot ehtiyojlari uchun yer uchastkasini olib qo'yishga oid kelishuv tushunchasi va uni tuzish tartibining fuqarolik-huquqiy jihatlarini yoritish;

yer uchastkalarini olib qo'yilishi munosabati bilan beriladigan kompensatsiya va uning turlarini ilmiy-amaliy muammolarini aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini taklif qilish;

olib qo'yilgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektni egasiz mol-mulk deb topish tartibini tahlil qilish;

buziladigan ko'chmas mulk obyektlarini, shuningdek, olib qo'yilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni baholashni tadqiq qilish;

yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamaot ehtiyojlari uchun olib qo'yishga oid qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti yer uchastkasini davlat va jamaot ehtiyojlari uchun olib qo'yishga oid fuqaroviy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini yer uchastkasini davlat va jamaot ehtiyojlari uchun olib qo'yishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tarixiy, taqqoslash-qiyoslash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, aniq sotsiologik, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

⁵ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'p kvartirali uy joylashgan yer uchastkasi olib qo'yilganda taraflarning kelishuviga ko'ra huquq egasiga avvalgisiga teng qiymatli turar joy (kvartira) mulk qilib berilishi asoslantirilgan;

noturar joy obyektini joylashgan yer uchastkasi olib qo'yilganda huquq egasiga avvalgisiga teng qiymatli boshqa noturar joy obyektini berilishi zarurligi asoslangan;

yakka tartibdagi uy joylashgan yer uchastkasi olib qo'yilganda taraflarning kelishuviga ko'ra huquq egasiga maydoni uy-joy maydonining ijtimoiy normasidan kam bo'lmagan, avvalgisiga teng qiymatli yakka tartibdagi uy mulk qilib berilishi asoslantirilgan;

ko'chmas mulk obyektini buzish olib qo'yilayotgan yer uchastkasida loyihani va ishlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan mablag'lar hisobidan tashabbuskor tomonidan amalga oshirilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yer uchastkasidan kompensatsiya evaziga olib qo'yish uchun asos bo'ladigan jamoat ehtiyojlari ro'yxati yopiq bo'lishi va qonunda qat'iy belgilanishi ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda yerga oid mulkchilik munosabatlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi asoslangan;

yer uchastkasining olib qo'yilishi yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni tugatish asosi hisoblanishi va unga oid qoidalar Fuqarolik kodeksida belgilanishiga oid takliflar ishlab chiqilgan;

yer uchastkasi olib qo'yilayotganda kompensatsiya miqdorini hisoblashda baholash kompleks tarzda amalga oshirilishi lozimligi va bunda "bozor qiymati"ni hisoblash usullarini qo'llashning huquqiy asoslari yanada aniqlashtirilishi bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan;

yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishning milliy yondashuv "jamoat manfaatlari nazariyasiga (Public Interest Theory)" asoslanishi va shu asosda qonunchilik mexanizmlari shakllantirilganligi tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirib, olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, fuqarolik qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda

hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida xususiy huquq sohasidagi fanlarni o'qitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

ko'p kvartirali uy joylashgan yer uchastkasi olib qo'yilganda taraflarning kelishuviga ko'ra huquq egasiga maydoni uy-joy maydonining ijtimoiy normasidan kam bo'lmagan, avvalgisiga teng qiymatli turar joy (kvartira) mulk qilib berilishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O'RQ-781-son "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasi birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining 2024-yil 28-noyabrdagi 1/05-sonli xatiga asosan tasdiqlangan 1-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi yer uchastkasi olib qo'yilganda unda joylashgan ko'p kvartirali uy uchun mutanosib kompensatsiya berish miqdorini o'rnatishga xizmat qilgan;

yashash uchun mo'ljallanmagan obyekt joylashgan yer uchastkasi olib qo'yilganda taraflarning kelishuviga ko'ra huquq egasiga, avvalgisiga teng qiymatli yashash uchun mo'ljallanmagan obyekt mulk qilib berilishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O'RQ-781-son "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining 2024-yil 28-noyabrdagi 1/05-sonli xatiga asosan tasdiqlangan 1-son dalolatnomasi). Mazkur taklif bino yoki inshoot egalarining huquq va manfaatlarini kafolatlari doirasini kengaytirishga asos bo'lgan;

yakka tartibdagi (shu jumladan, qurilishi tugallanmagan, lekin belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan) uy joylashgan yer uchastkasi olib qo'yilganda taraflarning kelishuviga ko'ra huquq egasiga, avvalgisiga teng qiymatli yakka tartibdagi uy mulk qilib berilishi taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O'RQ-781-son "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasi uchinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Adliya vazirligining 2025-yil 3-iyundagi 1/05-sonli xatiga asosan tasdiqlangan 1-son dalolatnomasi). Ushbu taklif yakka tartibdagi uy joylashgan yer uchastkasi olib qo'yilganda huquq egasining manfaatlarini ta'minlash mexanizmini aniqlashga imkon yaratgan;

ko'chmas mulk obyektini buzish olib qo'yilayotgan yer uchastkasida loyihani va ishlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan mablag'lar hisobidan tashabbuskor tomonidan amalga oshirilishiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O'RQ-781-son "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunining 6-bobi 32-moddasi birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil 3-iyundagi 10/1-7694/8-son dalolatnomasi). Mazkur taklif olib qo'yish jarayonida ko'chmas mulk obyektini

buzish xarajatlarini tashabbuskor zimmasiga yuklash orqali huquq egasining huquqiy kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, 8 ta ilmiy maqola (4 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 9 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yer uchastkasini davlat tomonidan olib qo'yishni fuqarolik-huquqiy asoslarining umumiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida yer uchastkasini olib qo'yishda davlat va jamoat ehtiyojlari tushunchasining ilmiy-amaliy jihatlari, yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish prinsiplarining tahlili, yer uchastkalarini davlat tomonidan olib qo'yishning fuqarolik-huquqiy asoslarining rivojlanish genezisi kabi masalalar tahlil qilingan.

Huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biri xususiy mulk huquqini amalga oshirish va himoya qilishda xususiy va jamoat manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashdan iborat. Bugungi kunda O'zbekistonda, har qanday huquqiy davlatda bo'lganidek, xususiy huquqiy manfaatlarni himoya qilish ustuvor hisoblanadi. Biroq, ma'lum sharoitlarda, jamoat manfaatlari ustun kelgan holatlar istisno emas, bunda jamoat uchun shaxsiy manfaatlar qurbon qilinadi. Shu sababli, yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari yoki jamoat zaruriyati sababli ajratish holatlarida jamoat va shaxsiy manfaatlarga daxl qilinganligi sababli yer uchastkalarini ajratish asoslari va mexanizmi hamda mulkdorlarga adolatli kompensatsiya to'lash shartlari va tartibini aniq qonunchilik bilan tartibga solish juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasidagi bugungi yerga nisbatan huquqiy munosabatlarni murakkab aralash huquqiy munosabatlar sifatida talqin etish va yerga oid davlat va xususiy mulkchilik, mutlaq va titul huquq hamda ashyoviy majburiyat huquqlarining aralashma konstruksiyalaridan tashkil topadigan subyekt va yerning o'zaro aloqadorligi sifatida tavsiflash mumkin. Qonunchilikda belgilangan yerga nisbatan fuqarolar va yuridik shaxslar ega bo'lishlari mumkin bo'lgan huquqlar mutlaq va muddatsiz tus kasb etmasligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki muayyan vaziyatlar va holatlar taqozosiga qarab bu huquqlarning cheklanishi yoki yerga nisbatan u yoki

bu huquq egasining huquqlari bekor qilinib, yer uchastkasi davlat tomonidan olib qo'yilishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, davlatning umumijtimoiy funksiyalari va maqsadlaridan kelib chiqadi.

Dissertatsiyada mol-mulkni davlat ixtiyoriga o'tkazilishiga nisbatan bir qator huquqshunos olimlar (H.R. Rahmonqulov, I.B. Zokirov, V.Y. Ergashev, M.X. Baratov)ning fikrlari tahlil qilinib, mol-mulkni, shu jumladan, yer uchastkalarini davlat tomonidan olib qo'yilishi u qaysi asos: natsionalizatsiya, rekvizitsiya, davlat ehtiyoji, jamoat ehtiyojiga ko'ra amalga oshirilishidan qat'i nazar juda jiddiy sabab va shartlarga tayanishi hamda doimo munosib haq to'labgina amalga oshirilishi lozim, degan xulosaga kelinadi. Shuningdek, tadqiqot ishida kompensatsiya evaziga olib qo'yiladigan "ehtiyotlar"ning huquqiy tabiati borasidagi huquqshunos olimlar (A.M. Tolgonova, K.I. Dubinina, M. Grigorev)ning mulohazalari tavsiflanib, yer uchastkalarining davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish o'ziga xos tartibotga bo'ysundirilgan hamda yer uchastkasini huquq egasidan kompensatsiya evaziga olib qo'yishni nazarda tutadigan muayyan tartib-taomillar tizimi bo'lib, uning maqsadi qonuniylik va adolatli hamda mutanosib to'lov evaziga yer uchastkasini davlat ixtiyoriga o'tkazish hisoblanadi, degan to'xtamga kelinadi. Shuningdek, ishda amalga oshirilgan tahlillar asosida "jamoat ehtiyojlari" tushunchasining mualliflik ta'rifi shakllantiriladi.

Jamoat ehtiyojlari uchun mol-mulkni olib qo'yish instituti nafaqat yer uchastkasini olib qo'yish tartibini tartibga solishga, balki mulkdorlarning huquqlarini davlat tomonidan o'zboshimchalik bilan bekor qilishdan himoya qilishga qaratilgan vositadir. Jamoat maqsadlari uchun olib qo'yish instituti jamoat va xususiy manfaatlarni muvofiqlashtiradigan o'ziga xos murosalari huquqiy yechim bo'lishi lozim. Shunga ko'ra, u asossiz yoki adolatsiz olib qo'yish harakatlaridan kafolatlar tizimini tashkil etadi. Jamoat maqsadlari uchun olib qo'yish institutining mazmuni haqidagi masalani o'rganib chiqib, u xususiy mulk huquqining murakkab kafolati bo'lgan ideal huquqiy model ekanligini ko'rsatish mumkin. Dissertatsiyada yer uchastkasi jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish "qonuniylik; mulk huquqining ustuvorligi; xususiy mulkning daxlsizligi; ochiqlik va shaffoflik; kompensatsiyaning kafolatlanganligi" kabi prinsiplarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozimligi tahlil qilingan. Xususan, "mulk huquqining ustuvorligi va xususiy mulkning daxlsizligi" prinsiplarini tadqiq qilishda huquqshunos olimlar (J.I. Boboyev, K. Sindorov, N.Sh. Said-Gaziyeva, A.A. Muxammadiyev, A.V. Dzera, N.S. Kuznetsova, V. Romyanseva, K.G. Fetisenko, S.Y. Ilchenko, S.A. Novojilov)ning fikrlari tahlil etiladi va mazkur prinsiplarning mohiyati qonunchilikda kengroq ochib berilishi zarurati asoslantiriladi.

Tadqiqot ishida jamoat ehtiyojlari va manfaatlari tushunchasining rivojlanishi tarixiy rakursdan o'rganiladi. Bunda qadimgi Rim huquqi, o'rta asrlar Yevropa uyg'onish davri huquqshunoslarining fikrlari, Yevropa davlatlarining Yerga oid qonunchiligining shakllanishi hamda O'zbekiston hududidagi yerga oid qonunchilikning rivojlanish jarayonlari o'zbek xonliklari hamda chor Rossiyasi, Buxoro va Xorazm xalq respublikalari hamda sovetlar davrlari negizida tadqiq etiladi. Shuningdek, muallif mustaqil O'zbekistonda yerga oid qonunchilikning jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini olib qo'yish masalalarini tavsiflaydi.

Tadqiqot ishining “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishga oid kelishuv tuzish va kompensatsiya berish tartibining nazariy va amaliy masalalari” deb nomlangan ikkinchi bobida jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini olib qo‘yishga oid kelishuv tushunchasi va uni tuzish tartibining fuqarolik-huquqiy jihatlari, yer uchastkalari olib qo‘yilishi sababli beriladigan kompensatsiya va uning turlari, kompensatsiya berish tartibi va muddatlarini qo‘llash muammolari kabi masalalar o‘rganilgan.

“Jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasini olib qo‘yishga oid kelishuv”ning mohiyatini tadqiq etishda muallif tomonidan ayrim olimlar (H.R. Rahmonqulov, V.V. Vitryanskiy, V.V. Gruzdev, S.A. Bevzenko, V.A. Malisheva, O.G. Yershov)ning ilmiy ishlari tahlil qilinib, kompensatsiya evaziga olib qo‘yiladigan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning turlari, ularning mazmun-mohiyati, ushbu huquqlarning amal qilishi kabi masalalar ushbu tadqiqotning predmetiga kirmasa-da, olib qo‘yishning oqibati sifatida ushbu huquqlarning tugashi, bekor bo‘lishi qayd etiladi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, jamoat ehtiyoji munosabati bilan yer uchastkasini sotib olish mulkdorning roziligi bilan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud qarori bilan amalga oshiriladi.

Jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalari davlat tomonidan olib qo‘yilganda kompensatsiya berilishi qonunchilikda qat’iy belgilangan prinsip sanaladi. Bunda kompensatsiya yer uchastkasiga nisbatan huquq egasi yoki uning merosxo‘rlariga beriladi va uning miqdori qoida tariqasida bozor qiymati bilan o‘lchanadi. Kompensatsiya berish o‘ziga xos yupanch va ko‘mak vazifasini o‘tovchi vosita sanaladi. Tadqiqot ishida kompensatsiya va uning turlari borasida bir qator xorijiy davlatlar (Fransiya, Germaniya, AQSh)ning tajribasi hamda olimlar (B.M. Hamroqulov, V.A. Belov, I.R. Mamatkazin)ning fikrlari o‘rganilib, kompensatsiya berish huquqi buzilgan, huquqini yo‘qotgan yoki moddiy ne‘mat va unga bo‘lgan huquq davlat tomonidan olib qo‘yilgan shaxs uchun beriladigan muayyan pul summasi yoki boshqa mol-mulk sifatida tushunilishi mumkin, degan xulosaga kelinadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda jamoat ehtiyojlari uchun xususiy mulkni olib qo‘yish va unga adolatli kompensatsiyani belgilash uchun alohida tartib-taomillarni o‘z ichiga qamrab oluvchi normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Chunonchi, AQSh Konstitutsiyasi jamoat ehtiyojlari uchun mulkni ekspropriatsiya qilishning barcha holatlarida “adolatli kompensatsiya”ni nazarda tutadi. Filippin Konstitutsiyasida ham “adolatli sotib olish” tushunchasi mavjud. Braziliya Konstitutsiyasi ham “adolatli kompensatsiya” tushunchasini o‘z ichiga oladi. Kambodja Konstitutsiyasiga ko‘ra, davlat olib qo‘yilgan yer uchastkalari uchun “adolatli bozor qiymati”ni to‘laydi. Shuningdek, tadqiqot ishida yana bir qator xorijiy davlatlarning qonunchiligi (Buyuk Britaniya, Germaniya) hamda sud amaliyoti materiallari tahlil qilingan holda, jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yishda kompensatsiya berish miqdorining eng muhim mezonlari – bu bozor qiymati va yer uchastkasidagi obyektlar uchun yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani undirish, biroq amaldagi qonunchilikda boy berilgan foydaning miqdorini aniqlash mezonlari aniq emasligi va bu masalaga oid qonunchilik normasini takomillashtirish talab etiladi, degan fikr ilgari suriladi.

Ishda keltirilishicha, davlat va munitsipal ehtiyojlar uchun yer uchastkalarini olib qo'yish – yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini tugatish asoslaridan biridir. Bu jarayon faqat davlat organlarining mulkdorlar huquqlarining asossiz buzilishini istisno etadigan ma'lum shartlarga rioya qilingan holda amalga oshirilishi mumkin. Ammo yer uchastkalarini olib qo'yishni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ayrim muammolar mavjud bo'lib, bu qonunchilikning mukammal emasligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi – **“Olib qo'yilgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektni egasiz mol-mulk deb topish va buziladigan ko'chmas mulkni, shuningdek, olib qo'yilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni baholash tartibining ilmiy-amaliy masalalari”**ga bag'ishlangan bo'lib, unda olib qo'yilgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektni egasiz mol-mulk deb topish tartibi, buziladigan ko'chmas mulk obyektlarini, shuningdek, olib qo'yilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni baholash muammolari, yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga oid qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish tahlili amalga oshirilgan.

Jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishida muayyan ko'chmas mol-mulkning huquqiy rejimini aniqlash, ushbu ko'chmas mol-mulkning kimga tegishligini belgilash talab etiladi. Ayrim holatlarda esa bunday ko'chmas mol-mulkning mulkdorini yoki egasini aniqlash mumkin bo'lmay qoladi. Bunday holatlarda jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi lozim bo'lgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mol-mulkni egasiz deb topish tartibi qo'llanadi. Egasiz mol-mulk rejimi fuqarolik huquqida davlat tomonidan mulk huquqini qo'lga kiritish usullaridan biri hisoblanadi. Shu sababli qonunchilikda mol-mulkni egasiz deb topish bo'yicha umumiy rejim va maxsus rejim ajratiladi. Fuqarolik qonunchiligi ashyoni egasiz deb tavsiflovchi quyidagi xususiyatlarni mustahkamlaydi 1) ashyoning egasi mavjud emas; 2) ashyoning egasi noma'lum; 3) agar qonunlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mulkdor ashyoga egalik qilishdan voz kechgan.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillar asosida O'zbekiston FKga ham “mulk huquqidan voz kechish” nomli moddani kiritish va uni 198¹-modda sifatida ifodalash taklif etiladi. Mulk huquqidan voz kechishning huquqiy tabiatiga oid olimlar (E.A. Gryada, A.B. Yelizarov, N.V. Klyaus, Z.K. Kondratenko, Y.P. Chornovol, N.Y. Chelischeva)ning fikrlari tahlil etilib, O'zbekiston Respublikasining O'RQ-781-son Qonunining 28-moddasi to'rtinchi qismi sifatida “olib qo'yilgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektiga nisbatan huquqlarni belgilash qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi” qoidasini kiritish taklif etiladi.

Ko'chmas mol-mulklarni baholash usullari turlicha bo'lishi va har xil qoidalarga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Odatda bunday baholash muayyan obyektning o'rtacha qiymatidan kelib chiqadi va shu asosda aniqlanadi. Tadqiqot ishida huquqni qo'llash amaliyotida baholashda bozor qiymatidan kelib chiqilishi va turlicha tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkinligi sud amaliyoti misollari asosida ochib berilgan. Shuningdek, dissertatsiyada mol-mulkning qiymatini baholashda bir nechta usullardan foydalanish va bu usullar bo'yicha qiymat turlicha

chiqishi mumkinligi ta’kidalanib, bu borada xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga e’tibor qaratgan holda baholashning ko‘plab usullari mavjudligi va ular mulkning har xil qiymatini chiqarishi mumkinligi asoslantirilgan.

Muallifning fikricha, huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili xususiy baholash tashkilotlari hamda davlat tashkilotlari tomonidan ekspertiza asosida o‘tkaziladigan baholashda mol-mulklarning qiymati o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Odatda bu farqlar baholash usullari va yondashuvlarining turli-tumanligidan kelib chiqadi. Qolaversa, bozor qiymatini aniqlash aynan qanday yondashuvlar asosida amalga oshirilishi borasida ham qonunchilik darajasida aniq ko‘rsatmalarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xorijiy mamlakatlarda yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga olib qo‘yishga oid bir qator ilmiy nazariyalar amal qiladi: 1) Jamoat manfaatlari nazariyasi (Public Interest Theory); 2) Iqtisodiy samaradorlik nazariyasi (Economic Efficiency Theory); 3) Adolat va huquqlarni himoya qilish nazariyasi (Fairness and Equity Theory); 4) Qarorlarni inklyuziv qabul qilish (Participatory Approach). Shuningdek, dissertatsiyada yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishga oid xorijlik olimlar (I.Somin, U.Westman, S.Praduroux)ning fikrlari o‘rganilib, barcha mamlakatlar uchun umumiy asos – bu “jamoat ehtiyojlari”, “jamoat ishlari”, “ijtimoiy ehtiyojlar” hisoblanishi, farq sifatida ushbu tushunchaning mazmuni turli ma’nolar bilan boyitilganligi asoslab beriladi. Xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili asosida FKni “Jamoat ehtiyojlar uchun yer uchastkasini olib qo‘yish” nomli 204¹-modda, “Yer uchastkasining mulkdori bo‘lmagan shaxslarning yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarini bekor bo‘lishi” nomli 204²-modda bilan to‘ldirish hamda FKning 197-moddasini yangi tahrirda ifodalash taklifi ilgari suriladi.

XULOSA

Yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy hamda amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:

1. Jamoat (ommaviy) ehtiyojlari deganda davlat yoki munitsipal organlarning eng muhim funksiyalarini bajarish uchun boshqa yer uchastkasidan foydalanishning imkoni bo‘lmagan hollarda (istisnolik prinsipi) huquq egasiga tegishli yer uchastkasini qonunda belgilangan maqsadlar uchun olib qo‘yish zarurati bo‘lib, bunda mulkdorga teng qiymatli kompensatsiya berilishi va olib qo‘yilgan yer faqat belgilangan maqsadlarda foydalanilishi, ehtiyoj qolmagan taqdirda esa avvalgi mulkdorga qaytarilishi kafolatlanishi tushuniladi.

2. Dissertatsiyada yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yishning huquqiy-iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari yuzasidan “jamoat manfaatlari nazariyasi (Public Interest Theory)”, “iqtisodiy samaradorlik nazariyasi (Economic Efficiency Theory)” “adolat va huquqlarni himoya qilish nazariyasi (Fairness and Equity Theory)” “qarorlarni inklyuziv qabul qilish (Participatory Approach)” nazariyalari tahlil qilinib, O‘zbekiston qonunchiligi “jamoat manfaatlari nazariyasi”ga mos

kelishi va huquqiy doktrina ham aynan shu nazariya asosida shakllanishi lozimligi asoslantirilgan.

3. Jahon davlatlarining yerdan umumiy foydalanishni huquqiy tartibga solish modellarini shakllantirishning asosi sifatida rim huquqi doktrinasida ishlab chiqilgan *res publicae* (ommaviy ashyolar) fuqarolik-huquqiy konsepsiyasi xizmat qilgan. Ushbu ashyolarning asosiy xususiyati ularni xususiy mulk obyektlari qatoridan va umuman xususiy-huquqiy munosabatlardan to'liq chiqarib tashlash hisoblangan. O'rta asr Yevropa huquqi tomonidan resipitsiyalangan *res publicae* instituti keyinchalik jamoat mulkini tushunishning bir necha yo'nalishlariga aylandi. Yevropada "modifikatsiyalangan xususiy mulk" (GFR, Avstriya) doktrinasini va jamoat mulki konsepsiyasi (Fransiya, Italiya, Germaniya) ajratib ko'rsatilgan. Bundan tashqari, umumiy yerdan foydalanishni tartibga solishga bo'lgan o'ziga xos yondashuv anglosakson huquq konsepsiyasida kuzatiladi.

4. Jamoat ehtiyojlari uchun xususiy mulkni olib qo'yish instituti nafaqat xususiy yerni olib qo'yishni tartibga solishga, balki mulkdorlarning huquqlarini davlat tomonidan o'zboshimchalik bilan bekor qilishdan himoya qilishga qaratilgan vositadir. Jamoat maqsadlari uchun olib qo'yish instituti jamoat va xususiy manfaatlarni muvofiqlashtiradigan o'ziga xos murosalari huquqiy yechim bo'lishi lozim. Shunga ko'ra, u asossiz yoki adolatsiz olib qo'yish harakatlaridan kafolatlar tizimini tashkil etadi. Jamoat maqsadlari uchun olib qo'yish institutining mazmuni haqidagi masalani o'rganib chiqib, u xususiy mulk huquqining murakkab kafolati bo'lgan ideal huquqiy model ekanligini ko'rsatish mumkin. Shunday qilib, rasmiy-huquqiy jihatdan jamoat maqsadlari uchun olib qo'yish institutini hokimiyat organlarining xususiy yerni olib qo'yish vakolatini suiiste'mol qilishdan turli kafolatlar elementlaridan iborat huquqiy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

